

ITALYAN YOZUVCHISI ALESSANDRO MANZONINING "I PROMESSI SPOSI" ROMANING "ADDIO MONTI" (ALVIDO, TOG'LAR) BO'LIMIDA LEKSIK ARXAIZMLARNING IFODALANISHI

Otaxonova Munixon Jonibek qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti 2-kurs magistranti

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: arxaizmlar, istorizmlar, tarixiy kontekst, metod, klassik adabiyot, uslub.

Annotatsiya

Ushbu maqolada italiyan adabiyotiga va madaniyatiga katta ta'sir o'tkazgan yozuvchi Alessandro Manzoning yirik romani bo'lmish "Juftlarning ahdlashuvi" asarida qo'llanilgan arxaizmlar tadqiq qilinadi. Shuningdek, ushbu maqolada ushbu sohani o'rganan olimlarning xulosa va tahlillarini ko'rishimiz mumkin. Tilshunoslik o'z ichiga juda ko'plab bo'limlarni mujassamlashtirgan va bu sohalarni o'rganish davomida biz albatta eskirgan so'zlarga duch kelamiz. Bu so'zlarga qadimda qo'llanilgan lekin hozirda umuman qo'llanilmaydigan so'zlar (istorizmlar) yoki hozirgi kunda ma'nosi saqlangan holda eskirgan eskirgan so'zlar (arxaizmlar) kiradi. Biz bu so'zlarni ularning sinonimlari orqali tushunishimiz va foydalanishimiz mumkin bo'ladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Kirish: Tilshunoslik o'z ichiga juda ko'p sohalarni qamrab olgan. Tilshunoslik juda keng ma'noda o'rganilib, uning har bir sohasi bir-biriga chambarchas bog'liq. Tilshunoslikda arxaizm, bir tilda eski yoki eskirgan so'zlar va iboralarni o'rganish bilan bog'liq bo'lib, tilning evolyutsiyasini tushunishga yordam beradi. Arxaizm tilning tarixiy rivojlanishini ko'rsatadi va eski til shakllarining zamonaviy tilga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rganish imkonini beradi. Shuning uchun ham eskirgan so'zlarning tilshunoslikda ahamiyati juda katta. Eskirgan so'zlar bu turli xil sabablarga ko'ra hozirgi kunda nutqda qo'llanilmaydigan so'zlarning maxsus guruhi hisoblanadi. Bu so'zlarga qadimda qo'llanilgan lekin hozirda umuman qo'llanilmaydigan so'zlar istorizmlar hisoblanadi. Masalan: jallod, ellikboshi, qamal kabi so'zlar o'zi bilan birga manosi ham yo'qolib ketgan so'zlar turkumiga kiradi. Biz bunday tarixiy so'zlarni ko'proq Navoiy, Lutfiy, Bobur va boshqa tarixiy siymolar asarlarida va shuningdek, Tolstoy, Dostoyevskiy va Mayakovskiy asarlarida uchratishimiz mumkin. Eskirgan so'zlarning yana bir katta tarmog'i bu arxaizmlardir. Ular istorizmlarning kichik bir guruhi bo'lib, tarixiy so'zlarga biroz o'xshab ketadi. Arxaizmlarning tarixiy so'zlardan farqi shundaki, bu so'zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish mumkin. Masalan, bart-botir, bitik-kitob, ochun-dunyo, al-qo'l. Italiyan tilida ham bir qator arxaik so'zlar mavjud bo'lib, bu so'zlar asosan uyg'onish davri yozuvchi va shoirlari tomonidan keng qo'llanigan. Italiyan tili Hind-Yevropa tillari oilasiga mansub bo'lib, o'z tarixi davomida turli lahjalar va tillar, jumladan yunon, arab va turli Italiya davlatlarining tillari ta'sirida lotin tilidan paydo bo'lgan. Har qanday tilning lug'aviy tarkibi doimiy o'zgarishda bo'ladi. Shuning uchun til leksik tizimi va uning birliklari muntazam ravishda tadqiq qilinishni taqozo qiladi. Tadqiqotlarda so'zlar turli asosga ko'ra

tasniflanadi. Xususan, qo'llanish darajasiga ko'ra: umumiy iste'mol va chegaralangan leksika; qo'llanish davriga ko'ra: eskirgan so'z, zamonaviy so'z va neologizm; qo'llanish doirasiga ko'ra: dialektizm, professionalizm, jargon kabi turlarga bo'linadi¹. Aynan italyan tilidagi ko'pgina eskirgan so'zlar ham o'rta asrlar yoki Uyg'onish davriga borib taqaladi. Arxaik so'zlar manbasiga lotin tili asos bo'ladi. Italiyaning turli mintaqalarida arxaik atamalarning rivojlanishiga hissa qo'shgan o'z shevalari mavjud va shuningdek, klassik adabiyot, sheriya va tarixiy matnlarda ko'pincha bu arxaik atamalar bor. Misol uchun: *corte* – *sud* degan ma'noni anglatadi, bu atama hali ham qo'llaniladi, ammo qirollik sudlari bilan bog'liq holda ko'proq tarixiy ma'noga ega bo'lishi mumkin: *altronde* – *boshqa tomondan* degan ma'noni anglatib, bugungi kunda rasmiy yoki adabiy uslubda qo'llaniladi: *fanciullo* - *bola* yoki *yoshlik* so'zlari uchun hozirgi kunda *bambino* bilan almashtiriladi. Arxaik so'zlar ko'pincha tarixiy-ma'daniy ahamiyatga ega bo'lib, avvalgi davrlarda ijtimoiy normalar, an'analar va qadriyatlar aks ettirgan va shuningdek, klassik adabiyot, opera va tarixiy matnlarda ham arxaik so'zlar tez-tez uchraydi va Italiyaning madaniy merosi haqidagi tushunchani boyitadi. Tilshunoslar va olimlar Italiyaning til tarixini saqlab qolish va klassik adabiyotni qadrlashni rag'batlantirish uchun ushbu arxaik atamalarni o'rganadilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). "Arxaizm" tushunchasining o'zi alohida bir asarga emas, balki til va adabiy hodisaga ishora qilgani uchun alohida shaxsga yoki muayyan nashrga tegishli emas. Arxaizmlar tarix davomida turli til va adabiyotlarda mavjud bo'lgan. Biroq, qadimiy matnlarda arxaizmning dastlabki namunalari topish mumkin. Masalan: yunon shoiri Gomerning qadimgi "Iliada" va "Odiseya" dostonlarida ko'plab arxaik shakl va iboralar mavjud. Injil matnlarida, Bibliyaning ko'plab tarjimalari, ayniqsa Qirol Jeyms Versiyasi (1611) oldingi asrlar tilini aks ettiruvchi arxaizmlarni o'z ichiga oladi. Adabiy harakatlar nuqtai nazaridan, Uyg'onish davrida klassik asarlarga qiziqish uyg'ongan, bu ko'pincha stilistik maqsadlarda arxaik tildan foydalanishni o'z ichiga olgan. 14-asrda Dante Aligyeri va 16-asr oxiri va 17-asr boshlarida Uilyam Shekspir kabi yozuvchilar ham o'z asarlarida tarixiy yoki yuksak ohanglarni uyg'otish uchun arxaizmlardan foydalanganlar. Shuningdek o'tgan yillar davomida turli tilshunoslar, adabiyotshunoslar, tarixchilar tomonidan arxaizm bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Ferdinand de Sossyur Strukturaviy tilshunoslikka oid ishlari til o'zgarishini, jumladan, arxaizmlardan foydalanishni tushunish uchun zamin yaratdi. J.R.R. Tolkien filolog sifatida qadimgi tillarni o'rgangan va o'z asarlariga, xususan, "Uzuklar hukmdori" asariga arxaizmlarni kiritgan. O'rta asr adabiyoti olimi C.S. Lyuis o'z asarlarida va eski matnlarni tahlil qilishda arxaizmi o'rgangan. Valter Ong og'zaki nutq va savodxonlik bo'yicha tadqiqotlari turli xil aloqa shakllarida arxaizmlarning qanday ishlashiga bag'ishlangan. Muayyan tillarning evolyutsiyasiga ixtisoslashgan ko'plab tilshunoslar va tarixchilar (masalan, qadimgi ingliz yoki qadimgi fransuz) o'zlarining tadqiqotlari doirasida arxaizmlarni ko'rib chiqdilar. Tilshunoslar til evolyutsiyasini, qo'llanishdagi o'zgarishlarni va til o'zgarishiga hissa qo'shadigan sotsiologik omillarni tushunish uchun arxaizmlarni o'rganadilar.

O'zbek tilshunosligida ham arxaizmlar va istorizmlarni qo'llash doirasida bir nechta romalardan parchalarni misol qilish mumkin. Deylik, o'z asarida o'n beshinchi asr voqeligini tasvirlayotgan ijodkor, tabiiyki, o'sha davrga xos realiyalarni tasvirlashi lozim bo'ladi. Ya'ni, o'sha davr koloritini o'sha davrga xos bo'lgan narsa-buyumlar, hodisalar, tushunchalar va h. nomlarisiz to'la tasvirlab bo'lmaydi. Masalan, "Ulug'bek xazinasi" romanida: "Mahramlar orasida jiyanlari – shahzoda Abdulla bilan Abu Said Mirzo ham turar, zarbof to'n ichidan suvoriy sovut, boshlariga tilla hoshiyali dubulg'a kiygan bu ikki shahzodaning ham ko'zlarida taraddud, harakatlarida toqatsizlik sezilib turardi". Keltirilgan parchada portret detallarini ifodalagan "suvoriy sovut" va "dubulg'a" so'zlari tasvir predmetini jonli tasavvur qilishga ko'mak beradi.²

¹ "Leksik arxaizm va uning semantizatsiyasi". Usmonova Umida. 2023

² Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Ushbu tadqiqot ishida Manzoning "Juftlarning ahdlashuvi" tarixiy-romanidagi arxaik soʻzlarni koʻrib chiqishda chogʻishtirma, tavsifiy va statistik tahlil metodlaridan keng foydalaniladi. Tilshunos olim R.Rasulov ilmiy xulosalariga koʻra chogʻishtirma metodi ikki va undan ortiq qarindosh yoki qarindosh boʻlmagan tillarni, til hodisalarini oʻzaro qiyoslash usuli boʻlib, ushbu xususiyatga koʻra faqat qarindosh tillarni taqqoslab, qiyoslab oʻrganadigan qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy metoddan farqli ravishda, chogʻishtirilayotgan tillarning tarixiga, ularning kelib chiqishiga, genetik jihatlariga, taraqqiyotiga eʼtibor bermaydi³.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Manzoning davrida arxaizm – bu oʻsha davrda mavjud boʻlgan eski, anʼanaviy yoki eskirgan til va uslublarni anglatadi. Manzoni, Italiya adabiyotining muhim namoyandalaridan biri boʻlib, uning asarlarida oʻz zamonidagi ijtimoiy va madaniy muammolarni yoritishda arxaik elementlardan foydalanilgan. Arxaizm, koʻpincha, adabiyotda tarixiy kontekstni yaratish yoki maʼlum bir atmosfera hosil qilish uchun ishlatiladi. Manzoni oʻz asarlarida arxaik uslublarni qoʻllab, oʻzining qahramonlariga va voqealariga chuqurroq maʼno berishga harakat qilgan. Bu, shuningdek, oʻz zamonidagi madaniyatni va anʼanalarni saqlab qolish uchun ham muhim edi.

Leksik arxaizmlar oʻz ichida bir nechta turlarga boʻlinadi: maʼlum bir tovush majmuasi sifatida butunlay eskirgan soʻzlar. Bunga misol qilib rus tilidagi *кров* (крыша)- boshpana yoki tom maʼnolarida. «На *кровы* ближнего селенья нисходит вечер, день погас» (Е. А. Баратынский)⁴ – "Yaqin qishloqning tomlariga oqshom tushdi, kun oʻtdi" (Е. А. Baratinskiy). Leksik arxaizmning bu turiga Manzoni asaridan shu jumlani keltirish mumkin: "Addio, monti sorgenti dall'acque, ed elevati al cielo; cime inuguali, note a chi è cresciuto tra voi, e impresse nella sua mente, non meno che lo sia l'aspetto **de'** suoi più familiari⁵;" (Alvido, suvdan koʻtarilgan va osmonga yetgan togʻlar; tengsiz choʻqqilar, togʻlar orasida osib - ulgʻaygan buni tushunar va uning ongida muhrlanar, uning qiyofasi xudolarining siymosidan kam emas) Ushbu parchada **de'**- *xudo* soʻzi arxaik soʻz boʻlib, bugungi kunda Dio soʻzi ishlatiladi. Soʻz yasovchi affiks (koʻpincha qoʻshimcha) bilan farq qiluvchi leksik va soʻz yasovchi arxaizmlar: азиатцы (азиаты) - osiyoliklar, рыбарь-(рыбак) – baliqchi. Oʻzining fonetik koʻrinishida zamonaviy talaffuz uchun noodatiy tovush yoki tovushlar birikmasiga ega boʻlgan leksik-fonetik arxaizmlar: галстук (галстук), прожект (проект), феоретический (теоретический). Aksentologik arxaizmlar - urgʻu oʻrnida hozirgi soʻzlardan farq qiluvchi soʻzlar: эпиграф (эпиграф), музЫка (МУзыка).

Alessandro Manzoni asarlarida arxaizm, uning tilida va uslubida koʻrinadi. Manzoni, asosan, "I Promessi Sposi" (Juftlarning ahdlashuvi) romanida oʻz zamonining ijtimoiy va madaniy muammolarini yoritishda arxaik elementlardan foydalanadi. Bu arxaik uslublarni, uning qahramonlari va voqealari orqali tarixiy kontekstni yaratishga yordam beradi. Manzoni oʻz asarlarida eski italyan tilidan foydalanadi, bu esa oʻsha davrning madaniyati va anʼanalarini aks ettiradi. U oʻz asarlarini yozishda arxaik soʻzlar va iboralardan foydalanadi: "quando si sente un calpestio e un urlio insieme; cresce e s'avvicina; compariscono i **forieri** della **masnada**⁶." (Bir vaqtning oʻzida oyoq tovushi va qichqiriq eshitilganda; ovoz balandlashadi va yaqinlashadi; toʻdaning xabarchilari paydo boʻladi.) *Forieri* soʻzi "xabarchi" degan maʼnoni anglatadi va hozirgi italyan tilida bu soʻz oʻrniga *annunciatore* soʻzi qoʻllaniladi. Manzoni oʻz qahramonlarini anʼanaviy qadriyatlar va ijtimoiy tuzilmalar bilan bogʻlaydi. Ularning xarakterlari koʻpincha eski italyan madaniyatining ramzi sifatida koʻrsatiladi. Arxaik elementlar, Manzoni asarlaridagi sotsial va diniy temalarni yoritishda yordam beradi. U eski anʼanalarga tayanib, oʻz zamonidagi muammolarni chuqurroq anglashga harakat qiladi. "I Promessi Sposi" romanida Manzoni, qadimiy iboralarni qoʻllash orqali qahramonlarning hissiyotlarini va ijtimoiy holatini yoritadi.

³ Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б.74.

⁴ Типы архаизмов.. Библиотекарь. ру. Дата обращения: 14 июля 2023

⁵ I Promessi sposi, cap VIII

⁶ I Promessi sposi, cap XII

Masalan, "Dio vede e provvede" (Xudo ko'radi va taqdirlaydi) kabi iboralar orqali diniy qadriyatlarni aks ettiradi. Romaning bosh qahramonlari, Renzo va Lucia, eski italyan an'analariga amal qilishadi. Ularning sevgisi va nikohga tayyorgarlik jarayoni, o'sha davrning an'analari bilan bog'liq. Manzoni, Milan shahridagi ocharchilik va boshqa tarixiy voqealarni tasvirlashda arxaik uslublardan foydalanadi. Bu voqealar orqali o'sha davrning ijtimoiy muammolarini yoritadi. Uning asarlaridagi arxaizm, uning ijodida zamonaviylik va an'anaviylik o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ko'rsatadi va o'z zamonining ijtimoiy muammolarini chuqurroq anglashga yordam beradi: "Alla fantasia di quello stesso che se ne parte volontariamente, tratto dalla speranza di fare **altrove** fortuna, si **disabbelliscono**, in quel momento, i sogni della ricchezza;" (O'z ixtiyori bilan ketayotgan, boshqa yerdan boylik orittirish umidida yo'lga otlangan kishining tasavvurida o'sha damda boylik orzulari puchga chiqadi;). *Altrove* va *disabbelliscono* (infinitivda disabbellire) so'zlari adabiyot va she'riyat yo'nalishlarida keng qo'llaniladigan so'zlar hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy italyan tilida *altrove* so'zi o'rniga in un altro luogo birikmasi ishlatiladi. *Disabbellire* fe'li *jozibani yo'qmoq* degan ma'noni anglatga ham aynan Manzoni uni *puchga chiqmoq* iborasi o'rnida ishlatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Arxaizm til tarixi va evolyutsiyasini, shuningdek, yozuvchilar va ma'ruzachilarning madaniy merosi bilan bog'lanish usullarini o'rganishimiz mumkin bo'lgan ajoyib ob'ekt bo'lib xizmat qiladi. Uning ishlatilishi yozma va og'zaki tilni boyitib, chuqurlik va rezonansni ta'minlaydi. Arxaik so'zlar va iboralar, qahramonlarning hissiyotlarini chuqurroq ifodalashga yordam beradi, shuningdek, asarning estetik jihatini boyitadi. Manzoni, arxaizm orqali o'z asarini nafaqat badiiy jihatdan kuchli, balki madaniy merosni saqlovchi bir asarga aylantiradi. Bu, o'quvchilarga o'sha davrning qadriyatlari va an'analarini tushunishga imkon beradi. Manzoni asarlaridagi arxaizm, uning ijodida zamonaviylik va an'anaviylik o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ko'rsatadi va o'z zamonining ijtimoiy muammolarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Italyan tili adabiyotida qo'llanilgan arxaik so'zlarning tahlillaridan kelib chiqib bo'lajak tadqiqotchilarga bir nechta tavsiyalar berilishi mumkin. Birinchidan: Italyan tili sheva va dialektlarga boy til, shuningdek, bu tildagi lug'atlarni va qadimiy adabiyotlarni o'rganish tavsiya qilinishi mumkin, va nihoyat, Italyan tili ko'plab shevalar va dialektlarni o'zida mujassamlashtirganligi sababli, dialektlarni o'rganish tavsiya qilinadi, chunki ularning ba'zi xususiyatlari arxaik elementlarni saqlab qolgan bo'lishi mumkin. "Til - bu ikki mamlakatni birlashtiradigan ko'prikdir" – deydi, kanadalik tilshunos olim Frank Smith. Shunday ekan, biz nafaqat chet tillarini, balki o'z ona tilimizni ham boshqa tillar bilan qiyoslab o'rganishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. 2000-yil
2. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б.74.
3. Storie e testi di letteratura italiana per stranieri. Paolo E. Balboni, Mario Cardona. 2002
4. Zaripova, S., & Chimberdiyeva, N. (2024, February). OG 'ZAKI SO 'ZLASH KO 'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 159-162).
5. Zaripova, S. (2024). METHODOLOGY-AN IMPORTANT FACTOR IN THE STUDY OF FOREIGN LANGUAGES. *Science and innovation*, 3(B1), 420-423.
6. Rajabov, M. (2024, February). HOW TO TEACH VOCABULARY IN PRE-SCHOOL AND SCHOOL. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 31-33).
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Arxaizm>
8. www.ziyo.uz
9. www.docsity.com
10. www.treccani.it